


## I. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 10 152,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (72,8 %) ni tashkil etdi.




B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,

C - Ishlab chiqaradigan sanoat,

D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,

E - Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

### Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining 8,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 0,6 % kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoatda – 4,5 % ga o'sishi kuzatildi.


*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

**Yanvar-iyun oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da**



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 838,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,3 % ini tashkil etdi.

### Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 394,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 72,8 % ini tashkil etdi.

## Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1 679,2 tonna to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,3 % ni), 1 123,2 ming litr aroq mahsulotlari ishlab chiqarilib (111,0 % ni), 2 018,0 tonna plastmassadan quvurlar, trubkalar va shlanglar (114,0 % ni) yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi va 10,2 ming tonna neft (69,5 %), 60,8 ming tonna suyultirilgan propan va butan (87,5 %), 76 707,6 tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (101,7 %), 26 259,0 tonna paxtadan yigirilgan ip (157,0 %) kamayishi kuzatildi.


### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar  
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar -iyun	farqi +/-
Neft, <i>tonna</i>	10,2	26,1	-15,9
Paxtadan yigirilgan ip, <i>tonna</i>	26 259,0	8 456,0	17 803,0
Aroq, <i>ming litr</i>	1 123,2	2 556,9	-1 433,7
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	76,7	224,8	-148,1
Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi, <i>ming t.</i>	31,4	99,4	-68,0
O‘simlik yog‘i (tozalanmagan), <i>ming t.</i>	2,7	21,7	- 19,0

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash  
(Yanvar-iyun oylarida)**




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 862,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (18,3 % ini) tashkil etdi.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kvts	4 955,7	163,2	4 792,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 598,1	3 214,9	-1 616,8

**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish**  
(Yanvar-iyun oylarida)




Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlar, mlrd. so‘m	27,4	57,5	-30,1
Oqova suvlarni shlami, mlrd. so‘m	6,8	11,4	-4,6

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 089,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino, pivo va aroq mahsulotlari 2,7 %, (2021- yil yanvar-iyun oylarida 2,2 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 23,5 % ni, shuningdek, Koson tumaniga 10,2 % ni, Yakkabog' tumaniga 7,9 % ni, Shahrisabiz shaharga 7,5 % ni hamda Kitob tumanga 7,0 % ni tashkil etdi.

### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (2022- yilning yanvar-iyun oylarida)

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 637,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,1 % ni tashkil etdi.

## Qashqadaryo viloyati hududlari bo‘yicha iste‘mol mahsulotlari ishlab

### chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur‘ati

*2022- yilning yanvar-iyun oylarida*

	Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da				
<b>Qashqadaryo viloyati</b>							
	2 089,6	100,0	105,4				
<b>Qashqadaryo viloyati</b>							
	Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da		Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da
	496,7	23,5	101,3		156,4	7,5	102,4
<b>Qarshi shahar</b>				<b>Shahrisabz shahar</b>			
	Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da		Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da
	57,9	2,7	103,4		57,5	2,7	103,0
<b>G‘uzor</b>				<b>Dehqonobod</b>			
	Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da		Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da
	101,4	4,8	102,2		118,5	5,6	102,4
<b>Qamashi</b>				<b>Qarshi</b>			
	Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da		Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da
	196,7	10,2	127,1		148,2	7,0	102,4
<b>Koson</b>				<b>Kitob</b>			
	Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da		Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da
	101,7	4,8	102,0		48,7	2,3	102,2
<b>Mirishkor</b>				<b>Muborak</b>			
	Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da		Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da
	106,3	5,0	102,3		65,2	3,1	116,7
<b>Nishon</b>				<b>Kashi</b>			
	Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da		Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da
	147,0	6,9	101,4		124,9	5,9	106,4
<b>Chiroqchi</b>				<b>Shahrisabz</b>			
	Mrd. so‘m	Ulushi % da	O‘sishi % da				
	162,6	7,9	122,3				
<b>Yakkabog‘</b>							

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari


2022- yilning yanvar-iyun oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	10 152,6	100,0	105,6	<b>Qashqadaryo viloyati</b>			
	1 174,3	14,5	107,6		174,2	1,7	103,5
<b>Qarshi shahar</b>				<b>Shahrisabz shahar</b>			
	1 744,8	17,2	99,3		582,0	5,7	124,3
<b>G'uzor</b>				<b>Dehqonobod</b>			
	311,0	3,1	112,6		931,2	9,2	118,7
<b>Qamashi</b>				<b>Qarshi</b>			
	492,1	4,8	102,9		212,2	2,1	101,3
<b>Koson</b>				<b>Kitob</b>			
	362,8	3,6	142,6		291,4	2,9	105,3
<b>Mirishkor</b>				<b>Muborak</b>			
	1 777,2	17,5	90,3		985,1	9,7	101,0
<b>Nishon</b>				<b>Kasbi</b>			
	213,2	2,1	100,6		194,3	1,9	101,1
<b>Chiroqchi</b>				<b>Shahrisabz</b>			
	406,8	4,0	105,2	<b>Yakkabog'</b>			

## Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nishon tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 17,5 % ni) hamda G‘uzor (17,2 %), Qarshi shahri (14,5 %), Kasbi tumani (9,7 %), Qarshi tumani (9,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Shahrisabz shahri (1,7 %), Shahrisabz tumani (1,9 %) hamda Chiroqchi tumani (2,1 %) to‘g‘ri kelmoqda.



### Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida aholi jon boshiga sanoat va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-iyun oylarida*

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumani (11 110,4 ming so‘m), G‘uzor tumani (8 176,2 ming so‘m) va Qarshi shahrida (5 178,2 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 822,3 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 610,3 ming so‘m bo‘lgan holda, Qarshi shahrida 1 744,8 ming so‘mni, Shahrisabz shahrida 1 092,4 ming so‘mni, Mirishkor tumanida 815,9 ming so‘mni, Nishon tumanida 664,3 ming so‘mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2022- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so'm)


		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>2 965,6</b>	<b>610,3</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>5178,2</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>1 744,8</b>	
<b>Qarshi sh.</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>1 217,0</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>1 092,4</b>	
<b>Shahrisabz sh.</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>8 176,2</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>271,2</b>	
<b>G'uzor</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>3 783,5</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>373,8</b>	
<b>Dehqonobod</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>1 103,1</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>359,8</b>	
<b>Qamashi</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>3 572,6</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>454,5</b>	
<b>Qarshi</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>1 646,1</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>657,7</b>	
<b>Koson</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>779,6</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>544,7</b>	
<b>Kitob</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>2 910,6</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>815,9</b>	
<b>Mirishkor</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>3 214,8</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>536,5</b>	
<b>Muborak</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>11 110,4</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>664,3</b>	
<b>Nishon</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>4 809,2</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>318,4</b>	
<b>Kasbi</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>490,7</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>338,4</b>	
<b>Chiroqchi</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>852,0</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>547,4</b>	
<b>Shahrisabz</b>			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<b>1 494,5</b>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
		<b>597,2</b>	
<b>Yakkabog'</b>			

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2022- yilning yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 424,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,9 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 88,9 %), Chiroqchi tumanida (83,1 %), Shahrisabz shahrida (77,9 %) hamda Qamashi tumanida (67,5 %) kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, G'uzor tumani (3,9 %), Nishon tumani (6,4 %) va Dehqonobod tumani (8,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 5 228 dona sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 942 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,0 %) Qarshi shahriga, 565 tasi (10,7 %) Kitob tumaniga, 456 tasi (8,8 %) Yakkabog' tumaniga, 368 tasi (7,0 %) Qarshi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 729 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 135 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 18,5 %) Qarshi shahrida, 105 tasi (14,4 %) Qamashi tumanida, mos ravishda 78 tadan (10,7 %) G'uzor tumanida, 77 tasi (10,6 %) Qarshi tumanida, 73 tasi (10,0 %) Kitob tumanida tashkil etildi.